

## Fizika

- Jumlaning mazmuniga mos so'zni qo'yib, gapni to'ldiring. Sanoq jism bilan bog'langan koordinatalar va vaqt o'lchaydigan asbob .... deyiladi.  
A) Mexanik harakat      B) Soat      C) Sanoq sistemasi      D) Moddiy nuqta
- Jism 30 m/s tezlik bilan yuqoriga tik otildi. Jismning tezligi (modul jihatidan) qancha vaqtdan so'ng boshlang'ich tezligidan 3 marta kichik bo'ladi?  
A) 2 s.      B) 4 s.      C) 3 s.      D) 2 s va 4 s.
- 100 kg massali jism gorizontga nisbatan  $30^\circ$  burchak hosil qiluvchi qiya tekislik bo'ylab 20 m balandlikka ko'tariladi. Og'irlik kuchining bajargan ishini toping. ( $g=10\text{m/s}^2$ ).  
A) 20 kJ.      B) -20 kJ.      C) 40 kJ.      D) -40 kJ.
- Maydon kuchlanganligi 1 kV/m bo'lgan nuqtada joylashgan  $5\mu\text{C}$  zaryadga qancha kuch (N) ta'sir qilishini toping.  
A)  $5\cdot 10^{-2}$       B)  $5\cdot 10^{-3}$       C)  $5\cdot 10^{-5}$       D) 0.5
- 2 A o'zgarmas tok o'tayotgan, ko'ndalang kesim yuzi  $2\text{ mm}^2$  bo'lgan nikelin ( $\rho=0,4\cdot 10^{-6}\ \Omega\cdot\text{m}$ ) sim ichidagi elektr maydon kuchlanganligi qanday (V/m)?  
A) 0,4.      B) 0,8.      C) 1,2.      D) 1,6.
- Elektr toki zanjirning biror qismida 3 s da 6 J ish bajardi. Agar zanjir shu qismidagi kuchlanish 2 V bo'lsa, undan o'tayotgan tokning kuchi qanday (A)?  
A) 1.      B) 4.      C) 9.      D) 36.
- Modda miqdorining birligi nima?  
A) mol      B) kg      C) N      D) kg/mol
- Temperaturasi  $-73^\circ\text{C}$  bo'lgan bir mol bir atomli ideal gazning ichki energiyasini toping (J).  
A) 1662.      B) 2493.      C) 831.      D) 2225
- Fokus masofasi 5 sm bo'lgan sochuvchi linzaning optik kuchi (dptr) qanday?  
A) 0,2.      B) -0,2.      C) 20.      D) -20.
- Suv to'ldirilgan chelak quduqdan ko'tarilmoqda. Qaysi holda chelakni ushlab turish yengilroq bo'ladi?  
A) Chelak suvga to'la botib turganda.      B) Chelak suvga cho'kmaydigan holda.  
C) Chelakning yarmi suvga cho'kib turgan holda.      D) Hamma hollarda bir xil.
- Suv qaysi temperaturadan boshlab bug'lana boshlaydi?( $^\circ\text{C}$ )  
A) 100 B) 20 C) 0 D) 10
- +q zaryadga ega bo'lgan suv tomchisi ikki tomchiga ajraldi. Birinchi tomchining zaryadi +2q ga teng bo'lsa, ikkinchi tomchining zaryadi qanday bo'lishi kerak?  
A) 3q B) +q C) -q D) -2q
- Velosipedchi tekis xarakat qilib, 20 m masofani 2 sekundda o'tdi. U xudd shu tezlik bilan 6 sek.da qancha yo'l bosib o'tadi.  
A) 60 m      B) 100 m      C) 150 m      D) 40 m
- Tebranish amplitudasi birligi uchun to'g'ri yozilgan ifodani ko'rsating.  
A) metr      B) Gers      C) sekund      D) gramm
- Muhitning absolyut sindirish ko'rsatkichi qanday qiymatlarni qabul qiladi?  
A) 1 dan kichik B) 1dan katta C) manfiy D) 0 dan 1 gacha.